ONA TILI DARSLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Munira Shermirzayeva Boymirza qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti
1-kurs tayanch doktoranti
Science ID: FNM-1026-0164

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan onlayn muhokama, o'zaro baholash va raqamli taqdimot usullari ilmiy-nazariy jihatdan ko'rib chiqiladi. Adabiyotlar tahlili asosida mazkur usullarning metodologik mohiyati haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *kommunikativ ko'nikma, onlayn muhokama, o'zaro baholash, taqdimot, boshlang'ich sinf, ona tili darsi, interfaol metod, nutq faolligi*

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация: *В данной статье в научно-теоретическом плане рассматриваются методы онлайн-дискуссии, взаимного оценивания и цифровых презентаций, направленные на развитие коммуникативной компетенции учащихся начальных классов на уроках родного языка. На основе анализа литературы осмысляется методологическая сущность данных методов.*

Ключевые слова: *коммуникативный навык, онлайн-дискуссия, взаимное оценивание, презентация, начальная школа, урок родного языка, интерактивный метод, речевая активность*

DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN MOTHER TONGUE LESSON

Abstract: *This article provides a scientific and theoretical examination of online discussion, peer assessment and digital presentation methods aimed at developing the communicative competence of primary school pupils in native language lessons. Based on a review of the literature, the methodological essence of these methods is discussed.*

Keywords: *communicative skill, online discussion, peer assessment, presentation, primary school, native language lesson, interactive method, speech activity*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida davlat tili sifatida o‘zbek tilining nufuzi va qo‘llanish doirasi kengayib borishi uni o‘qitish metodologiyasiga yangi talablar qo‘ymoqda. O‘zbek adabiy tilining leksik, morfologik, sintaktik va uslubiy me’yorlarini to‘g‘ri egallash hamda ulardan nutqiy amaliyotda samarali foydalanish [1] ko‘nikmasi ta’lim oluvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning asosini tashkil etadi.

Kommunikativ kompetensiya – o‘quvchining til vositalarini muloqot jarayonida erkin, to‘g‘ri va ta’sirchan qo‘llash qobiliyatidir. Bu kompetensiya tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish va yozish kabi to‘rt asosiy ko‘nikmani o‘z ichiga oladi [2]. 1–4-sinf yoshidagi bolalar uchun ushbu ko‘nikmalarni erta va maqsadli rivojlantirish keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyat kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

D.Normuminova kommunikativ kompetensiyani “samarali muloqot qilish qobiliyati” sifatida ta’riflaydi va bola bu kompetensiyani egallash orqali dunyo haqida kengroq tasavvurga ega bo‘lishini asoslaydi [3]. Sh.N.Sayidova kommunikativ metodning asosiy afzalligini shunday ifodalaydi: bu yondashuv “barcha mavjud o‘qitish uslublarining eng yaxshi yutuqlarini o‘ziga mujassamlashtirgan” bo‘lib, og‘zaki muloqot kompetensiyasini rivojlantirishni bosh maqsad sifatida belgilaydi [4].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Kommunikativ kompetensiya nazariyasi xorijiy ilm-fanda D.Xayms [5], M.Kanale va M.Sveyn [6] kabi olimlarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. M.Kanale va M.Sveyn tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya modeli tilni shunchaki grammatik qoidalar darajasida bilish emas, balki undan real hayotda, muloqot jarayonida to‘g‘ri va samarali foydalanishni tushuntirib beradi. Dastlab ushbu model 3 ta komponentdan iborat bo‘lgan, keyinchalik (1983-yilda) Kanale unga to‘rtinchi komponentni ham qo‘shgan: grammatik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya va strategik kompetensiya. Mazkur nazariy asos boshlang‘ich ta’limda tavsiya etilgan usullarning ilmiy zaminini tashkil etadi.

Respublikamizda ham tadqiqotchilar ushbu masalani chuqur o‘rganishgan. G.A.Yusupova, M.T.Xudayarova va Sh.M.Buranova o‘zbek maktablarida nutqiy kompetensiyaning tarixiy-metodologik tahlilini amalga oshirib, “maktabda ona tili o‘qitish grammatikaga asoslanib qoldi” degan muammoning XX asrning 40-yillaridan beri dolzarb bo‘lib kelayotganini ko‘rsatadi [7]. Bu holat boshlang‘ich sinflarda, ya’ni nutqiy ko‘nikmalarning poydevor qo‘yilayotgan bosqichida, ayniqsa, seziladi.

F.B.Boboyorova ona tili darslarida kommunikativ yondashuvni qo‘llash natijasida o‘quvchida “o‘z so‘z boyligini kengaytirish, nutqni lo‘nda va ifodali qilib tuzish, grammatika va stilistika bilan birga ongli ravishda nutq qurishga” erishilishini asoslaydi.

U zamonaviy o‘qituvchining rolini tubdan qayta belgilab, uni “bilim sohibi va nazorat qiluvchi emas, balki tarmoqli faoliyatni boshqaruvchi" sifatida ta’riflaydi [8].

Tadqiqot tahliliy-nazariy metodologiyaga asoslanib, quyidagi yondashuvlarni qamrab oladi: ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, mavjud interaktiv usullarni boshlang‘ich ta’lim nuqtayi nazaridan qiyosiy o‘rganish hamda ona tili darsi talablarini hisobga olgan holda metodologik tavsiyalar ishlab chiqish. Kommunikativ kompetensiyani baholash mezonlari sifatida quyidagilar belgilanadi: 1) talaffuz va intonatsiya aniqligi; 2) so‘z boyligining rivojlanishi; 3) gapirish ravonligi; 4) matn mazmunini tushunish; 5) o‘z fikrini mustaqil ifodalash qobiliyati.

Onlayn muhokama usulining ahamiyati shundaki, u o‘quvchini passiv tinglovchidan faol muloqot ishtirokchisiga aylantiradi. D.Normuminova kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda “o‘quvchilarni kommunikativ faoliyatga undovchi vazifalar – juftliklarda ishlash, rolli o‘yinlar, hamkorlikdagi topshiriqlar ko‘p bo‘lsa, har bir o‘quvchi doimiy ravishda faol harakatda bo‘ladi” deb ta’kidlaydi. Onlayn muhokama aynan shu tamoyilni boshlang‘ich sinfda raqamli muhitda amalga oshirishning ko‘rinishi hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda onlayn muhokama quyidagicha tashkil etiladi: o‘qituvchi o‘qilgan matndan yoshi va bilim darajasiga mos ochiq savol beradi (masalan: “Bu qahramonning xatti-harakati to‘g‘rimi? Nega?” yoki “Qishning qaysi jihati senga yoqadi?”). 3–4-sinf o‘quvchilari 5 daqiqa ichida fikrini yozadi yoki Padlet kabi qurilmaga kiritadi, so‘ngra 2–3 javob sinfda ovoz chiqarib muhokama qilinadi. Ushbu usul bir darsda yozma nutq, o‘qish va og‘zaki muloqot kompetensiyalarini birgalikda rivojlantiradi.

O‘zaro baholash usuli D.Normuminovaning “har bir o‘quvchi o‘z nutqlarini yozib olishi va tinglab xatolarni to‘g‘rilashi” lozimligiga oid tavsiyasiga asoslanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘zaro baholash uchta sodda mezon bo‘yicha amalga oshiriladi: fikr aniqligi (1–4 ball), misol keltirish (1–4 ball), ravon gapirish (1–4 ball). 1–2-sinfda og‘zaki baholash, 3–4-sinfda oddiy baholash varaqasi qo‘llaniladi. Sh.N.Sayidova ta’kidlaganidek, tengdoshlar muloqotida “do‘stlarining fikrini tinglash va qabul qilish kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismidir”.

Raqamli taqdimot usuli G.A.Yusupovaning nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda o‘quvchining ijodiy mustaqil faoliyati haqidagi g‘oyasiga asoslanadi. Boshlang‘ich sinflarda taqdimot 2–3 kishilik guruhda 2–3 daqiqa davomida amalga oshiriladi: mavzuni tushuntirish (1 daqiqa), qiziqarli fakt yoki rasm (1 daqiqa), sinfdoshlarga 1 ta savol. Google Slides yoki Canva for Education dasturlarining bolalar

uchun mo'ljallangan interfeysi qo'llaniladi. Taqdimot baholash ulushi: o'qituvchi 50 foiz, sinfdoshlar 50 foiz.

Uch usulni birgalikda qo'llashning to'rt bosqichli metodologik modeli taklif etiladi. Birinchi bosqich – motivatsion kirish (5 daqiqa): o'qituvchi mavzu bo'yicha qisqa savol yoki muammo qo'yadi, o'quvchilar fikrlarini onlayn muhokama orqali bildiradi. Ikkinchi bosqich – asosiy nutq mashqlari (20 daqiqa): guruh yoki juftliklarda raqamli taqdimot tayyorlanadi. Uchinchi bosqich – mustahkamlash va o'zaro baholash (10 daqiqa): taqdimotlar tengdoshlar tomonidan belgilangan mezonlar asosida baholanadi. To'rtinchi bosqich – ijodiy qo'llash (5 daqiqa): o'quvchilar o'rganilgan usullardan foydalanib, qisqa og'zaki yakunlovchi fikr bildiradi. D.Normuminova ta'kidlaganidek, kommunikativ faoliyat "aniq vaziyat yoki kontekstni, maqsadni o'z ichiga olishi kerak". Ushbu to'rt bosqichli model aynan shu talabga javob beradi.

Ona tili darslarida ushbu usullarni qo'llashning pedagogik shartlari mavjud. Birinchidan, o'quvchida gapirish ehtiyojini yuzaga keltiruvchi vaziyat bo'lishi kerak. Ikkinchidan, nutqning mazmunli bo'lishi uchun yetarli bilim va tajriba asosi shakllantirilishi lozim. Uchinchidan, o'quvchi o'z fikrini ifodalash uchun zarur til vositalari bilan qurollangan bo'lishi talab etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili darslarida onlayn muhokama, o'zaro baholash va raqamli taqdimot usullaridan metodologik jihatdan to'g'ri foydalanish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda bir qancha muhim imkoniyatlar yaratadi: nutqiy faollikni oshirish, tengdoshlar muloqoti orqali o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasini shakllantirish va ijodiy mustaqil taqdimot orqali kommunikativ motivatsiyani kuchaytirish. "Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir" va buning uchun "ona tili va adabiyot darslari muloqot darslariga aylanmog'i lozim".

Biroq ushbu usullar an'anaviy pedagogik metodlarni to'liq almashtira olmaydi. Ular faqat malakali o'qituvchi rahbarligida, aniq maqsad va metodologik asos asosida, bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llanilgandagina samarali bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurasulova U.S. Hozirgi o'zbek adabiy tili ta'limida talabalarda nutq madaniyati va uslubiy savodxonlikni rivojlantirish texnologiyalari // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – №5 (3-jild). – B.335-338.

2. Mo‘minova Sh.G‘. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish. – Namangan: NDU, 2023.

3. Normuminova D. Ona tili darslarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish // “Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi TDOU, 2024-yil 16-may. -– 61–65-betlar.

4. Sayidova Sh.N. Til ko‘nikmalarini shakllantirishda kommunikativ yondashuvning o‘rni // «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari. – BuxDU, 2022. – 164–167-betlar. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.6635953

5. Hymes D.H. On Communicative Competence // In Pride J.B., Holmes J. (eds.). Sociolinguistics. – Baltimore: Penguin Education, 1972. – P. 269-293.

6. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1(1). – P. 1-47.

7. Yusupova G.A., Xudayarova M.T., Buranova Sh.M. Ona tili darslarida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish usullari. – Nukus: Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili kafedrasi. – 42–49-betlar.

8. Boboyorova F.B. Ona tili fanini o‘qitishda kommunikativ yondashuv // Zamonaviy ta’lim: nazariya va amaliyot. – 2026. v №41 (1-qism, yanvar). – 440–444-betlar.